

Mavzu: Tinish belgilarining gapda qo'llanilishi. Ohang

Aa / Biz sirkka boryapmiz.



- Jasur sirkka borish xabarini qanday qabul qildi?
- Agar siz ham sirkka borgudek bo'lsangiz, o'z tuyg'ularingizni qanday ifodalaysiz?



E'tibor bering!

Quvonch, hayrat, zavq yoki ajablanishni bildirgan gaplar **his-hayajon gaplar** deyiladi. Bunday gaplarning oxirida undov belgisi (!) qo'yiladi.

Masalan: Ona tabiat qanday chiroyli!



1-mashq. Berilgan soʻzlardan his-hayajon gaplar tuzing.

1. qanday, Atirgullar, hid, xushboʻy, taratyapti!
2. bayram, vatandoshlarimizni, bilan, Barcha tabriklayman!
3. bu yer, qanchalik, Yozda, yaxshi!



His-hayajon gaplar ohangsiz, ya'ni xotirjam tarzda aytilsa, **darak gap**ga aylanadi. Bunday gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi.

Masalan: Men bugun "5" baho oldim!
Men bugun "5" baho oldim.



2-mashq. Tinish belgilariga e'tibor berib o'qing.

1. Qanday ajoyib kun!
2. Quyosh yorqin nur sochmoqda.
3. Seni tug'ilgan kuning bilan tabriklayman!
4. Bizning jamoa yutdimi?
5. Suv bering.



3-mashq. Rasmlar asosida sirk haqida ikkita gap tuzing.



**4-mashq.** Topishmoqlarning javobini toping.

Men ham tinish belgiman,
Shaklim o'xshar o'roqqa.
Savollarim juda ko'p,
Sizni tutdim so'roqqa.

Shoshib-shoshib gapirsam,
Sizga kelmasin malol.
Yozishni o'rganib ol,
Qiya chiziq va bir xol.

**5-mashq.** Har bir gap oxiriga kerakli tinish belgisini qo'yib, ko'chiring.

1. Sentabr boshida bolalar maktabga boradilar
2. Kuz faslida bog'larni sayr qilish qanday yaxshi
3. Qaysi hayvon eng tez yuguradi
4. Bugun juda ajoyib kun
5. Qanday chiroyli qush¹

